



QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA XATARLARINI O'ZARO SUG'URTALASH JAMIYATLARI TASHKIL ETISH ORQALI SUG'URTALASHNING XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

¹Kalenov Kuzbergen Tlegenovich

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
(PhD), dotsent vazifasini bajaruvchi,

²Utemuratova Rayxan Baxadir qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi.
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7726753>

ARTICLE INFO

Received: 03rd March 2023

Accepted: 12th March 2023

Online: 13th March 2023

KEY WORDS

Qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi korxonalari, qishloq xo'jaligi risklari, risklarni boshqarish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi, o'zaro sug'urta, ozzaro sug'urtalash jamiyatlari.

ABSTRACT

Maqolada qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyati bilan bog'liq risklar va ularni o'zaro sug'urtalash jamiyatlari tashkil etish orqali sug'urtalashning o'ziga xos xususiyatlari hamda uning afzalliklari to'g'risida va bu borada uzoq yillik tarixga ega bo'lgan xorijiy mamlakatlar tajribalari sifatida Kanada tajribasi yoritib berilgan va ushbu tajribani O'zbekistonda qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Sug'urta sohasi o'zining rivojlangan darajasida iqtisodiyotning bazaviy tizimlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bunday darajaga erishishda sug'urtani tashkil qilishning ikkita asosiy shakli amal qilishi muhim hisoblanadi. Bular: tijoratga asoslangan sug'urta va o'zaro sug'urta shakllaridir. O'zaro sug'urta dunyoning rivojlangan va ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarida katta hajmdagi sug'urta xizmatlarini amalga oshirmoqda.

O'zaro sug'urtalash jamiyati - bu alohida notijorat shaklidagi tashkilot bo'lib, uning maqsadi faoliyat yo'nalishi bir xil yoki o'zaro yaqin bo'lgan va shu bilan birga o'zaro yaqin hududda joylashgan jismoniy yoki yuridik shaxslarni o'zaro birlashtirgan holda ular faoliyatiga xos risklarni sug'urtalash, bundan maqsad esa a'zolarning mulki va boshqa mulkiy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar tajribasida o'zaro sug'urtadan qishloq xo'jaligini sug'urtalashda uzoq yillardan buyon samarali foydalanib kelinmoqda.

Bu borada dunyo miqyosida boshqali don ekinlari yetishtirish bo'yicha yetakchi mamlakat hisoblangan Kanada tajribasini o'rganish o'zining yaxshi samarasini beradi deb hisoblaymiz. Ikki yuz yildan ko'p vaqt oldin ushbu mamlakatda fermerlar birlashmalari faoliyat ko'rsatib boshlagan bo'lib, ular o'z faoliyatini "neighbor helps neighbor", ya'ni "qo'shni qo'shniga yordam beradi" printsipligiga asoslanib tashkil etganlar. Ushbu birlashmalar o'zaro sug'urtalash jamiyatlari shaklida tashkil etilgan bo'lib, ular asosan yong'indan va qishloq xo'jaligi xatarlaridan sug'urtalashni amalga oshiradi. XX asr boshlarida bunday birlashmalar o'rtasida konsolidatsiya (birlashish) jarayoni yuz berib o'tdi va buning natijasi o'laroq o'zaro sug'urtalash jamiyatlari assotsiatsiyasi tashkil bo'ldi. Endi bunday jamiyatlar faqat qishloq



xo'jaligi risklarini sug'urtalash bilan chegaralanib qolmasdan, assotsiatsiyaga a'zo o'zaro sug'urtalash jamiyatlari ishtirokida tashkil etilgan pul yordamida avtomobillar hamda avtomobil egalari javobgarligi sug'urtalari va boshqa sug'urta turlarini ham amalga oshirmoqda. Ammo fermerlar faoliyati bilan bog'liq yong'indan va qishloq xo'jalik risklaridan sug'urtalash ularning asosiy faoliyat yo'nalishi bo'lib qoldi.

Kanadada o'zaro sug'urta faoliyati uch bosqichda tashkil etilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

Boshqaruvning birinchi darajasi: Lokal o'zaro sug'urtalash jamiyatlari.

Kanada o'zaro sug'urtalash jamiyatlari assotsiatsiyasining ko'p sondagi a'zolaridan biri Ontario, Oxford Mutual Insurance Company 1973 yilda ikkita o'zaro sug'urtalash jamiyatiing birlashuvi natijasida tashkil topgan. Bu ikki tashkilot 1878 yilda Oksford, Middlseks, Eldjin va Pert grafliklarining fermerlik uyushmasida tashkil etilgan. Bugungi kunda "Oxford Mutual Insurance Company" tomonidan olingan majburiyatlar assotsiatsiya a'zolari bo'lgan 51 ta o'zaro sug'urtalash jamiyati aktivlari bilan kafolatlangan. Kompaniyaning o'z aktivlari hajmi 16 mln. AQSh dollarini tashkil etadi. Kompaniya tomonidan to'planadigan yillik sug'urta mukofotlari o'rtacha 7,5 mln. AQSh dollarini tashkil etmoqda. 1984 yildan buyon kompaniya tomonidan 4 marta yirik hajmdagi sug'urta to'lovlari amalga oshirilgan bo'lib, ularning har birining hajmi o'rtacha 1 mln. AQSh dollarini tashkil etgan.[1]

O'zaro sug'urtalash jamiyati a'zolarining 90 foizini tashkil etuvchi 4500 a'zosi uning markaziy ofisi joylashgan joydan 40 kilometr radiusda yashaydi va faoliyat ko'rsatadi. Ushbu a'zolar ichidan ular ofis rahbarlarini saylaydilar, saylangan rahbarlar o'z ichidan assotsiatsiyadagi vakilini saylaydilar. Bu tizim tashkiliy strukturaning yuqori darajadagi demokratiyasini ta'minlaydi, shu bilan birga a'zolar o'rtasidagi o'zaro ishonch ularning bir-birlarini yaxshi tanishlari hisobiga ta'minlanadi.[2]

Assotsiatsiya a'zolari bo'lgan ushbu jamiyatlar standart sug'urta turlari sifatida asosan quyidagi sug'urta turlarini amalga oshiradi:

qishloq xo'jalik texnikalari va jihozlari sug'urtasi; ko'chmas mulk sug'urtasi; fermer xo'jaliklari ekinlari hosildorligi va boshqa mahsulotlari sug'urtasi; chorva mollari sug'urtasi; foydani yo'qotishdan sug'urtalash; javobgarlik sug'urtasi, shu jumladan atrof muhitning ifloslanishidan sug'urtalash.

Boshqaruvning ikkinchi darajasi: o'zaro sug'urtalash jamiyatlari Assotsiatsiyalari.

Kanadaning Ontario shtatida O'SJlarning quyidagi uchta assotsiatsiyasi o'zaro hamkorlikda (tarixiy paydo bo'lishi va rivojlanishi ham bir xil) faoliyat olib bormoqda:

1) o'z tarkibida 51 ta o'zaro sug'urtalash jamiyatini birlashtirgan "Ontario o'zaro sug'urtalash jamiyatlari Assotsiatsiyasi". Assotsiatsiyaning sug'urta xizmatlaridan 250 mingdan ortiq kishi foydalanadi. Shu bilan birga, Assotsiatsiya ta'lim sohasida, statistik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish hamda davlat oldida fermerlarning manfaatlarini himoya qilish ishlari bilan shug'ullanadi.

2) "Qishloq xo'jalik xatarlarini o'zaro qayta sug'urtalash Assotsiatsiyasi" (Farm Mutual Reinsurance Plan, FMRP). Assotsiatsiya 1959 yilda tashkil etilgan va 51 ta o'zaro sug'urtalash jamiyatini o'zida birlashtirgan bo'lib, qayta sug'urta biznesini amalga oshiradi. Bugungi kunda assotsiatsiya o'z a'zolarining risklarini o'zaro qayta sug'urtalash bilan birga, qo'shimcha



ravishda tijoratga asoslangan sug'urta tashkilotlarining ham risklarini qayta sug'urtalab kelmoqda.

3) "Yong'inga qarshi o'zaro sug'urta fondi" (Fire Mutual Guarantee Fund). Assotsiatsiya yong'inga qarshi sug'urta operatsiyalarini konsolidatsiyalashga (birlashtirish) ixtisoslashgan.

O'z-o'zini boshqarishning ushbu ikkinchi darajasida sug'urtalanuvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot bo'lmaydi. Ushbu assotsiatsiyalar amalga oshiradigan asosiy vazifalar sug'urta zahiralarini jamlash, qabul qilingan risklarni vaqti va joyi bo'yicha taqsimlash va qayta sug'urta himoyasini tashkil etishdan iborat. Bundan tashqari assotsiatsiyalar tomonidan amalga oshiriladigan muhim vazifalardan biri aktuar hisoblarni amalga oshirish hisoblanadi. O'zaro sug'urtalash jamiyatlari assotsiatsiya tavsiya etgan tariflardan past tariflarni qo'llash huquqiga ega emas.

Boshqaruvning uchinchi darajasi: Assotsiatsiyalar ittifoqi.

Bu sug'urta konglomerati ustidan boshqaruvning eng yuqori darajasi Farm Mutual Financial Service Inc. (FMFS) bo'lib, uning muassislari yuqorida sanab o'tilgan uchta Assotsiatsiya hisoblanadi.

FMFSning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) Kanadada yoppasiga o'zaro sug'urta institutining rivojlanish strategiyasini shakllantirish;
- 2) marketing siyosatini shakllantirish va sug'urta bozorida Assotsiatsiyalar xizmatini rivojlantirish;
- 3) lokal o'zaro sug'urtalash jamiyatlariga yangi sug'urtalanuvchilarni jalb qilish;
- 4) Assotsiatsiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish;
- 5) maslahat xizmatlari.

FMFS rahbarlari sifatida pastki ikki darajadagi o'z-o'zini boshqarish tizimlarining vakillari hisoblanadi. Shunday qilib, barcha boshqaruv tuzilmalarini shakllantirish saylash va barcha a'zolarining manfaatlarini hisobga olish printsiplari asosida amalga oshiriladi. Bu esa demokratik va egiluvchanlik printsiplarini saqlash imkoniyatini yaratadi. [4]

Shuni ta'kidlab o'tish kerak, o'zaro sug'urtalash jamiyatlarining davlat bilan bo'ladigan munosabatlari FMFSning to'g'ridan-to'g'ri vazifasiga kirmaydi. Bu vazifa boshqaruvning ikkinchi darajasiga, ya'ni Assotsiatsiyalar vazifasiga kiritilgan. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, ilmiy va tahliliy ishlarning asosiy qismi o'z-o'zini boshqarishning ikkinchi darajasida amalga oshiriladi. O'zaro sug'urta qatnashchilarining qonunchilik va fermerlik faoliyatini tartibga solish asosan ushbu ikkinchi daraja bo'g'inida amalga oshiriladi. O'z-o'zini boshqarishning uchinchi eng yuqori darajasida davlat bilan bo'ladigan munosabatlar strategik rivojlantirish masalalarida yuz beradi.

Shunday qilib, Kanadada qishloq xo'jaligi bilan bog'liq xatarlar uch bochqichli o'zaro sug'urtalash shakli orqali amalga oshirilib, ushbu tizimning afzallik jihatlari shunda ko'rinadiki, bunda sug'urtalanuvchi bir vaqtning o'zida sug'urtalovchi sifatida jamiyat faoliyatida ishtirok etadi va bu ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlarining sug'urtalanuvchi xoxlagan xususiyatlarga ega holda taqdim etilishini hamda arzon va ishonchlilikini ta'minlaydi. O'zaro sug'urtalash jamiyatining har bir a'zosi mazkur jamiyatda sug'urta hodisalarining kam yuz berishi va shu bilan birga sug'urta zahiralarini investitsiyaga yo'naltirishdan olinadigan daromadning yuqori bo'lishidan manfaatdor ekanligi uning ish faoliyati samaradorligini ta'minlaydi.



Ma'lumki, O'zbekistonda ko'p sondagi shaxsiy tomorqa xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va fermer xo'jaliklari mavjud. Ular faoliyat ko'rsatishlari uchun yetarli miqdordagi kapitalning yo'qligi, risklarni diversifikatsiya qilish imkoniyatining kamligi tufayli bankrotlikka tushib qolish holatlari ko'p uchraydi. Bunday holatning oldini olishning birdan-bir yo'li sug'urta xizmatlaridan foydalanishdir. Ammo tijoratga asoslangan sug'urta tashkilotlarida bu xizmatning qimmatligi va shu bilan birga ishonchsizligi ularga bunday xizmatni sotib olishda bir tomondan moliyaviy qiyinchilik tug'dirsa, ikkinchi tomondan qiziqishni pasaytiradi.

O'zaro sug'urta mexanizmini faol qo'llash O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sug'urtasi bilan xo'jaliklarni to'liq qamrab olish imkonini beradi. Buning uchun O'zbekiston sharoitining o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda Kanada tajribalarini qo'llash zarur deb hisoblaymiz. Qishloq joylarda faoliyat ko'rsatayotgan shaxsiy tomorqa xo'jaliklari egalari ozzalarining mulkiy manfaatlarini sug'urtalash maqsadida mahallalar bazasida o'zlarining moddiy resurslarini birlashtirishlari mumkin. Buning qonuniy asoslari sifatida 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan "Dehqon xo'jaliklari to'g'risida"gi qonun (22 modda) va 2004 yil 26 avgustda qabul qilingan "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi qonunlarda (25 modda) dehqon va fermer xo'jaliklari ixtiyoriylik asosida, shu bilan birga ulush (pay) asosida ishlab chiqarish, xarid, qayta ishlash va sotish, moddiy-texnika ta'minoti, qurilish, texnik, suv ta'minoti, veterinariya, agroximiya, maslahat va boshqa xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan shirkatlarga, jamiyatlarga, ittifoqlarga, assotsiatsiyalarga va boshqa birlashmalarga birlashishlari mumkin deb belgilab qo'yilganligini eslatib o'tmoqchimiz. [3]

O'zaro sug'urtalash jamiyati tashkil etib, dehqon o'zi to'lagan badal evaziga sug'urta qoplamasini olish huquqiga ega bo'ladi. Sug'urta badali to'lash bilan u umumiy ish qatnashchisi sifatida munosabatga kirishadi, ushbu jamiyatni boshqarishda qatnashish, yangi sug'urta mahsulotlarini (o'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda) boshqa a'zolar bilan birgalikda ishlab chiqish huquqiga ega bo'ladi. Har bir a'zo ushbu jamiyatni rivojlantirishga, sug'urta qoplamasi hajmini oshirishga va boshqa shu kabilarni ko'zda tutuvchi takliflarni berishi va bu takliflar jamiyatning umumiy yig'ilishida ko'rib chiqilib, qarorlar qabul qilinishi mumkin. O'zaro sug'urtalash jamiyatida biror bir a'zo yoki boshqa shaxs ushbu jamiyatning yagona mulkdori yoki boshqaruvchisi bo'la olmaydi. Uning mulkiga hech bir shaxs alohida egalik qila olmaydi. Har bir a'zo-dehqon kiritgan badalining hajmidan qat'iy nazar faqat bir ovozga ega bo'ladi. [5]

Yillik faoliyat natijalari bo'yicha ortiqcha pul mablag'lari hosil bo'lganda, ushbu mablag'lar keyingi yil uchun sug'urta fondini shakllantirishga yo'naltirilishi yoki a'zolar o'rtasida teng taqsimlanishi mumkin. Yil davomida zararsiz ishlagan a'zolarga keyingi yil badali bo'yicha pasaytirilgan sug'urta tarif stavkalari qo'llanilishi mumkin. Bu esa ularning bundan keyingi faoliyatlarini ham zararsiz davom ettirishlari uchun omil bo'ladi. Shu usul bilan ikki tomonlama samaraga erishiladi: doimiy nazorat imkoniyati yaratiladi, buning natijasida sug'urta hodisalari soni kamayadi va o'z-o'zidan bu sug'urta himoyasi narxining pasayishiga olib keladi.

Ushbu masalaning o'zaro sug'urta bilan bog'liq yana bir jihat bor, ya'ni o'zaro sug'urtada barcha a'zolarining faoliyati bir-biriga o'xshash bo'lganligi, bir-birini yaxshi bilishi sug'urta hodisasining yuz berishi bilan bog'liq jarayonga mazkur a'zoning qay darajada vijdonan yondashganligini boshqa a'zolar yaxshi baholay olishadi. Ular bunday



muammolarning tub mohiyatini yaxshi bilishadi. Shuning uchun ogohlantirish tadbiri sifatida vaqti-vaqti bilan barcha a'zolar birgalikda o'z faoliyatlarini monitoring qilib borishlari, yuz berishi mumkin bo'lgan riskni oldindan aniqlay bilishlari va bu bo'yicha mulk egasiga o'z tajribalaridan kelib chiqib tavsiyalar berishlari sug'urta hodisalarining kamayishida o'zining yaxshi samarasini beradi.

Shunday qilib, o'zaro sug'urtada risk yuz berishining oldini olish choralari ma'muriy yo'l bilan amalga oshirilish bilan birga, a'zolarning o'zlarining harakatlari bilan ham amalga oshiriladi. Bunday sharoitda davlat qishloq xo'jaligida ko'riladigan zararlarni kamaytirish maqsadida majburiy sug'urtani joriy qilish kabi bozor talablariga zid choralarni ko'rishiga zarurat qolmaydi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun O'SJlarning ustunligi: sug'urta zahiralari ularning manfaatlaridan kelib chiqqan holda investitsiyaga yo'naltiriladi; investitsiya mablag'lari ushbu faoliyatni hamda asosiy faoliyatni yangi texnologiyalar bilan boyitish maqsadida ishlatilishi mumkin. To'plangan sug'urta mukofotlari qisqa muddatli kreditlash uchun ham yo'naltirilishi mumkin. Kam hosil olishdan sug'urtalash orqali qishloq xo'jalik korxonasining soliq to'lovi kamayadi. Chunki belgilangan qonunchilikka ko'ra ushbu maqsadlar uchun yo'naltirilgan mablag'lar mahsulot tannarxiga kiritiladi va soliq solish bazasidan chiqarib tashlanadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun O'SJning tashkiliy-huquqiy shaklini qishloq xo'jalik kooperativi (shirkati) sifatida tashkil etish har tomonlama qulay bo'ladi. Notijorat tashkilotlarining boshqa barcha shakllaridan a'zolikka asoslangan qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkati) uchun maxsus qonun mavjudligi ularning faoliyat yuritishlarini yanada osonlashtiradi. Mazkur qonunda aniq qilib belgilab qo'yilganki, ya'ni qishloq xo'jaligi kooperativi ishtirokchilarining moddiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish ularning mulkiy pay badallarini birlashtirish evaziga amalga oshiriladi, shu asosda bu jamiyat o'z a'zolari oldida olgan majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

References:

1. Oxford Mutual Insurance Company sayti ma'lumotlari: <http://www.oxfordmutual.com/>
2. http://www.omia.com/insProd_farm_general.asp.
3. «Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkati) to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 1998 yil 30 aprel.
4. Qo'ldoshev Q.M. O'zbekistonda o'zaro sug'urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish. Monografiya. T.: Iqtisodiyot 2020.
5. K.Kalenov «O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishda xorij tajribasidan foydalanish» QMU «Xabarshi» jurnali.
6. K.T.Kalenov The Way of Science International scientific journal. «The Way of Science» – 0.543 (Global Impact Factor, Australia) 2022. №12 (106).14-16. «Prospects for livestock insurance in the Republic of Uzbekistan»
7. R.B.Utemuratova «O'zbekiston Respublikasida sug'urta xizmatlari yo'lida chorvo'chilik mammolari va yechim yollari». Toshkent moliya instituti va Ural davlat iqtisodiyot universiteti tomondan «Iqtisodiyotni raqamlashtirish va moliyaviy xavfsizligini taminlash



sharoitida biznes jarayonlarini transformatsiyalash» mavzusida xalqaro ilmiy amaliy anjuman. 2023 yil.